



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 70-75 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MONETAR SIYOSATNING DAVLAT MOLIYASINI SAMARALI BOSHQARISHDAGI AHAMIYATI



**Abduraxmonov Valijon G'ofurovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijondagi fakulteti, "Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar  
va aniq fanlar" kafedrasida dosenti, iqtisod fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Monetar siyosat davlat moliyasini samarali boshqaruvida davlat daromadlari va xarajatlari, qarz menejmenti kabi muhim sohalarga ta'siri sababli muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy bank turli vositalar orqali pul massasi, foiz stavkasi va iqtisodiyotda kreditni nazorat qila olishi maqolada o'rganildi.

**Kalit so'zlar :** monetary siyosat, pul-kredit siyosati, foiz stavka, inflatsiya, daromad, xarajat, pul massasi.

Monetar siyosat deganda markaziy bank tomonidan iqtisodiyotda pul taklifi, foiz stavkalari va kreditlarni nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan harakatlar tushuniladi. Monetar siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliya tizimida barqarorlikni saqlash kabi makroiqtisodiy maqsadlarga erishishdir. Monetar siyosat yordamida foiz stavkalari va pul massalarini to'g'ri mutanosiblikda saqlash orqali inflatsiya nazorat qilinadi. Markaziy bank foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy tanazzul yoki turg'unlik davrida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga yordam berishi mumkin. Foiz stavkalarini pasaytirish qarz olish va xarajatlarni rag'batlantirishi mumkin, foiz stavkalarini oshirish esa haddan tashqari qizib ketgan iqtisodiyotni sovutishga yordam beradi.

Davlat qarzlari qiymatiga markaziy bank tomonidan belgilangan foiz stavkalari ta'sir qiladi. Past foiz stavkalari hukumatning qarz olish xarajatlarini kamaytiradi, davlat xarajatlarini moliyalashtirish va davlat qarzini boshqarishni osonlashtiradi. Markaziy bank pul-kredit siyosatidan banklarning majburiy rezerv talablarini tartibga solish orqali moliya tizimida barqarorlikni saqlashga erishadi. Pul-kredit siyosati hukumatlar faoliyat yuritadigan iqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, ularning davlat moliyasini samarali boshqarish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Davlat moliyasi va barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining o'рни va ahamiyati haqida ko'pgina iqtisodchi olimlar turfa muzokaralar olib borganlar. Mazkur masala yuzasidan turli millat vakillari ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar, maqolalar va monografiyalarni chop ettirganlar. Biroq shunday bo'lsa-da bugungi kunda ham ushbu

mavzu yana bir qator iqtisodchi va amaliyotchilar tomonidan keng muhokamaga sabab bo'lmogda va muhokamaning markazida turib kelmoqda.

Davlat barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan. Bunga misol tariqasida dastavval, Departamentning maxsus xodimasi Madina Gayfulinaning 2021-yilda chop qilingan «Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики» mavzusidagi maqolasini aytishimiz mumkin. Madina Gayfulina ushbu maqolasida bugungi kunda davlat moliyasi barqarorligida pul-kredit tizimi va siyosati qay darajada ekaniga, uning eng ahamiyatli tomonlariga alohida e'tibor qaratgan hamda baho berib o'tgan.<sup>1</sup>

Shuningdek, Tojikistonlik bir qator olimlar va iqtisod sohasining munosib izlanuvchilari: Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B singarilar ham xalqaro miqyosida «Tojikistonning taraqqiy etishida pul va moliyaviy vositalari» nomi bilan e'lon qilingan ilmiy ishlarida Tojikiston avlati timsolida pul-kredit siyosati haqida ma'lumotlar va takliflar beradilar.<sup>2</sup> Yana Mayexl N. ham o'zining «Monetar siyosatni qo'llash: Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar» mavzusidagi ilmiy maqolasi orqali pulkredit siyosati borasida o'z fikrlarini namoyon qilgan. Shuning bilan bir qatorda bu ishi bilan Mayexl N.<sup>3</sup> Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyatiga ham e'tibor berganini ko'rishimiz mumkindir.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, davlat moliyasi va pul-kredit siyosati o'zaro bog'liqlikda amalga oshadi. Bu munosabatlarni birbiri dan ayri holatda tushunish qiyindir. Sababi pul-kredit siyosati orqali davlat moliyasining kelajagini ta'minlash, uning taraqqiy etishida qator yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. Qator yutuqlarga erishish uchun esa albatta, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyatini yuksaltirish lozim.

Pul-kredit siyosati foiz stavkalari, inflyatsiya (va hokazolar) orqali davlat daromadlari, xarajatlari va qarzlarni boshqarish kabi davlat moliyasining asosiy jihatlariga ta'sir qiladi. Foiz stavka pastligi davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun qarz olishiga qulay sharoit yaratadi va natijada davlat xarajatlari salohiyati oshadi. Aksincha, yuqori foiz stavkasi qarz olishni qiyinlashtiradi. Yuqori inflatsiya davlat daromadlarining real qiymatini tushib ketishiga olib keladi, xarid qobiliyatlarini pasaytiradi, davlat qarzlarni ortishiga sabab bo'ladi.

Pul-kredit siyosati shuningdek iqtisodiy o'sish va qarz menejmentida ham muhim rol o'ynaydi. Pul-kredit siyosatini ikkiga ajratib ko'rsatish mumkin: kengaytirilgan va qisqartirilgan pul-kredit siyosati. Kengaytirilgan pul-kredit siyosatida foiz stavkalari pasaytiriladi, pul massasi ko'paytiriladi va bu o'z navbatida iqtisodiy faollikni

<sup>1</sup> Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021

<sup>2</sup> Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effectiveness of financial and monetary instruments of sustainable development in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.

<sup>3</sup> Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).

rag'batlantirishi va soliqlar orqali davlatga katta daromad olib kelishi mumkin. Aksincha, qisqartirilgan pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni susaytirish qobiliyatiga ega, chunki bu siyosat natijasida davlat daromadlari pasayib, qarzlari ortib ketadi.

Markaziy bank o'z siyosiy maqsadlariga erishishda va monetar siyosatni qo'llashda turli yo'llardan foydalanadi. Open Market Operations(OMO) Markaziy banklar tomonidan pul taklifi nazoratida qo'llanuvchi asosiy vositalardan. Bunda markaziy banklar muomaladagi pul massasini nazorat qilish uchun ochiq bozordagi davlat qimmatli qog'oz (obligatsiyalari)ni sotadi va sotib oladi. Markaziy bank obligatsiyalarni sotib olsa, iqtisodiyot katta pul bilan ta'minlanadi. Aksincha holatda esa (markaziy bank obligatsiyalarni sotsa), pul taklifi massasi kamayadi. Boshqa bir usuli: qayta moliyalash stavkasi. Bu to'g'ridan-to'g'ri banklarga ta'sirini o'tkazadi, sababi baklar depositlarga aynan shu ko'rsatkichga asoslanib foiz belgilaydi (natijada bu pul taklifiga ta'sir ko'rsatadi). Monetar siyosatning adabiyotlarda ikki asosiy turlari keltiriladi va quyidagi 1-rasmda buni ko'rishimiz mumkin.

Restriksion monetar siyosat.

Ekspansionistik monetar siyosat.

#### 1-rasm. Monetar siyosatning turlari<sup>4</sup>

**Restriksion monetar siyosat** deganda, odatda, muomaladagi pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlashga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi.

Restriksion monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalarining darajasi oshiriladi;
- tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotib olish sharti bilan sotiladi;
- Markaziy bank tomonidan hukumatga va tijorat banklariga tegishli bo'lgan vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari depozit hisob raqamlariga jalb etiladi;
- Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini cheklashga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

**Ekspansionistik monetar siyosat** deganda muomaladagi pul massasining multiplikativ kengayishini ta'minlash asosida to'lovga qobil talabni rag'batlantirishga qaratilgan monetar siyosat tushuniladi. Ekspansionistik monetar siyosatni amalga oshirishda Markaziy bank quyidagi usullardan foydalanadi:

- Markaziy bank qayta moliyalash stavkalarini pasaytiradi va tijorat banklariga beriladigan markazlashgan kreditlarning hajmini oshiradi;

<sup>4</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

– tijorat banklarining kreditlash hajmiga nisbatan Markaziy bank tomonidan belgilangan limitlar hajmi oshiriladi, ya'ni banklarga kreditlar miqdorini oshirishga imkoniyat yaratiladi;

– Markaziy bankning majburiy zaxira stavkalari pasaytiriladi;

– tijorat banklariga qimmatli qog'ozlar Markaziy bank tomonidan qayta sotish sharti bilan sotib olinadi;

– Markaziy bank valyuta siyosati doirasida milliy valyutadagi pul mablag'lari hajmining o'sish sur'atlarini oshirishga qaratilgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

Milliy valyutaning qadrsizlanishi umumiy talabning qisqarishiga olib kelgan sharoitda Markaziy bank tomonidan restriksion pul-kredit siyosatining qo'llanilishi milliy iqtisodiyotning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, YAIMning o'sish sur'ati sekinlashadi.<sup>5</sup>

2008-yildagi moliyaviy krizis vaqtida ko'plab Markaziy banklar iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun ekspansionistik monetar siyosatni qo'lladi. Misol uchun AQSH Federal rezervi stavkasini nolga yaqin darajalarga pastlatdi. Bu esa davlat qarzlari narxini pasaytirib, AQSh hukumatiga o'zining rag'batlantirish paketlari va qutqaruv dasturlarini arzon narxlarda moliyalash imkonini berdi.

Aksincha, markaziy banklar inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun restriksion pul-kredit siyosatini qo'llaganda, bu davlat qarzlari xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, 1980-yillarning boshida AQSh Federal rezerv tizimi yuqori inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun foiz stavkalarini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa AQSh hukumati qarz olish xarajatlarining keskin oshishiga va federal byudjet taqchilligiga olib keldi.

Pul-kredit siyosatini amalda muvaffaqiyatli joriy qilish uchun, kelajakda faqat yuqori natijani ko'zlash maqsadida bir necha metodlarga murojaat etish ham albatta zaruriy amaliyotdir. Bunga aniqlik kiritish uchun hozirgi vaqtda pul-kredit siyosatining keng miqyosda tarqalib ulgurgan usullari 1-jadvalda ask ettirilgan.

## 1-jadval

### Pul-kredit siyosatining usullari<sup>6</sup>

1.	Markaziy bankning rasmiy diskont stavkasining o'zgarishi (hisob yoki diskont siyosati);
2.	kreditlarning ayrim turlarini tartibga solishning tanlangan usullari;
3.	banklarning majburiy zahiralari normalarini o'zgartirish;
4.	ochiq bozor operatsiyalari (veksellarni, davlat obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish);
5.	banklar uchun iqtisodiy standartlarni tartibga solish (naqd pul zahiralari va depozitlar, o'z kapitali va ssuda kapitali hamda aktivlari o'rtasidagi bog'liqlik va boshqalar);
6.	alohida banklar yoki kreditlar uchun bank kreditlari hajmini bevosita cheklash (kredit shiftlari deb ataladigan);
7.	hisob siyosati;
8.	kredit tashkilotlarini qayta moliyalashtirish;

<sup>5</sup> Bobakulov T.I, Abdullayev U.A Monetar siyosat O'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya",2018.

<sup>6</sup> Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

9. pul massasining o'sishi uchun mezonlarni belgilash.
--

Hozirgi kunda ko'pgina markaziy banklar pul-kredit siyosatining bir qismi sifatida inflyatsiyani jilovlashga harakat qiladi. Inflatsiyani maqsadli diapazonda ushlab turish orqali markaziy bank iqtisodiy barqarorlikni rag'batlantirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashni o'z oldidagi maqsad deb biladi. Misol uchun, Avstraliya Zaxira banki inflyatsiya darajasini yiliga 2-3% dan oshmasligini maqsad qilib qo'ygan, bu barqaror iqtisodiy sharoitlarni saqlashga yordam beradi va hukumatning fiskal maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Pul-kredit siyosatining asosiy muammolardan biri inflatsiya yoki deflyatsiya xavfidir. Foiz stavkalarini pasaytirish yoki pul taklifini ko'paytirish kabi pul-kredit siyosati choralari talabni rag'batlantirishi va inflyatsiyaga olib kelishi mumkin. Aksincha, inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun pul-kredit siyosatini kuchaytirish deflyatsiya bosimiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiyotga zarar yetkazishi mumkin.

Markaziy banklar ko'pincha qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik sababli turli muammolarga duch kelishadi. Misol uchun, qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun past foiz stavka o'rnatish uzoq muddatda yuqori inflyatsiya yoki aktivlarning keskin ko'tarilishiga olib kelishi mumkin.

Globalashgan iqtisodiyotda bir mamlakatdagi pul-kredit siyosati boshqa mamlakatlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, ichki talabni rag'batlantirish maqsadida foiz stavkalarini pasaytirish boshqa mamlakatlarga kapitalning chiqib ketishiga va valyuta qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Mamlakatlar bo'ylab global darajada pul-kredit siyosati harakatlarini muvofiqlashtirish qiyin bo'lishi mumkin va har doim ham samarali bermasligi mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror davlat moliyasiga erishish uchun pul-kredit va fiskal siyosatini muvofiqlashtirish ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga sabab bo'ladi. Ikkala siyosat ham iqtisodiy faoliyatning umumiy darajasiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan, ammo turli mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

**Pul-kredit siyosati:** Markaziy banklar iqtisodiyotdagi pul massasi, foiz stavkalari va kredit shartlarini nazorat qilish uchun pul-kredit siyosatidan foydalanadilar. Ushbu ko'rsatkichlarni nazorat qilish orqali markaziy banklar yalpi talab, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin.

**Fiskal siyosat:** Hukumat davlat xarajatlarini, soliqqa tortish va qarz olishni boshqarish uchun ushbu moliyaviy siyosatdan foydalanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni tuzatish orqali hukumat yalpi talab, investitsiyalar va iqtisodiy o'sishga ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu ikki siyosatni muvofiqlashtirish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir:

Pul-kredit va fiskal siyosat ba'zan aksincha natija berishi mumkin. Misol uchun, agar hukumat iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun kengaytiruvchi fiskal siyosatni (xarajatlarni oshirish yoki soliqlarni qisqartirish) amalga oshirsa, lekin markaziy bank bir vaqtning o'zida qisqaruvchi pul-kredit siyosatini (foiz stavkalarini oshirish) amalga oshirsa, fiskal siyosatning samaradorligi pasayishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki monetar siyosatning davlat moliyasida ahamiyati katta. Foiz stavkadagi o'zgarishlar davlat qarzlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Pul-kredit siyosati inflatsiyaga ham ta'siri orqali davlat daromad yoki qarzlarini oshirib yuborishi (va aksincha) mumkin.

Qo'shimcha sifatida aytish joizki, moliyaviy vositachilikni takomillashtirish, xususiy bank faoliyatini kengaytirishning hisobiga ham uning samaradorligini oshirish, chakana bank faoliyatida narxdan tashqari omillarni bartaraf qilish, inflyatsiya kutilmalarini pasaytirish va umumiy makroiqtisodiy barqarorlashtirish kelgusida pul-kredit siyosatining transmessiya mexanizmini rivojlantirish yo'lida xizmat qiladi. Demak, bu nazariyalardan kelib chiqib xulosa tarzida ayta olamizki, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosati o'z ahamiyati bilan bevosita ishtirok etadi. Uning bu ishtiroki albatta, xalqning farovon turmush tarziga ega bo'lishiga, obod hayot kechirishi uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishida o'zini ochiq-oydin namoyon qiladi. Pul-kredit siyosati — davlat iqtisodiy tarkibiy qismi ekan, davlat moliyasi barqarorligini ta'minlanishi yo'lida doimo xizmatda turuvchi soha bo'lib qoladi.

Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun muvofiqlashtirilgan pul-kredit siyosati asoslari muhim ahamiyatga ega. Pul-kredit siyosati va davlat moliyasi o'rtasidagi bog'liqlikni tushunib, barqaror moliyaviy siyosat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun asosli qarorlar qabul qilinishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobaqulov T.I, Abdullayev U.A Monetar siyosat O'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya", 2018.
2. Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effektivnes of financial and monetary instruments of sustainable devolopement in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.
3. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффэктивности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
4. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
5. Малкина МЮ Инфляционные процессы и денежно-кредитные регистрации в России и за рубежом. Учебное пособие. М:ИНФРА-М, 2012. С.24.
6. Моисеев С.Р Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. Московская финансово-промышленная академия. 2011. С21.
7. Моисеев С.Р Денежно-кредитная политика: теория и практика. Учебное пособие. Московская финансово-промышленная академия. 2011. С21.
8. <https://azkurs.org/toshkent-moliya-instituti-v6.html>
9. <https://azkurs.org/toshkent-moliya-instituti-v6.html?page=2>

